



OILAVIY ZO'RAVONLIK VA MAISHIY ZO'RAVONLIK TUSHUNCHALARINING HUQUQIY TALQINI: TERMINOLOGIK ANIQLIK MASALALARI.

R.O.Homidova

Mirzo Ulug'bek tumani YXKM bosh yuriskonsulti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18608188>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 08-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 11-fevral 2026 yil

KEY WORDS

oilaviy zo'ravonlik, maishiy zo'ravonlik, terminologik aniqlik, huquqiy talqin, Jinoyat kodeksi 126¹-moddasi, zo'ravonlik subyekti, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi doirasida "oilaviy zo'ravonlik" va "maishiy zo'ravonlik" tushunchalarining huquqiy mohiyati hamda ularning normativ talqinida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot 2019–2023-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi asosida olib borilgan. Maqolada oilaviy zo'ravonlik huquqiy jihatdan tan olingan oila subyektlari o'rtasida sodir etiladigan zo'ravonlikni qamrab olishi, maishiy zo'ravonlik esa oilaviy-huquqiy munosabatlardan tashqarida, kundalik turmush sharoitida yuzaga keladigan zo'ravonlik holatlarini ifodalashi asoslab beriladi. Shuningdek, muammo "maishiy" atamasining normativ-huquqiy hujjatlarda "oilaviy" tushunchasi bilan sinonim tarzda qo'llanilishida namoyon bo'layotgani ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijasida terminologik aniqlikni ta'minlash va ushbu tushunchalarni qat'iy farqlash zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Ma'lumki, "2019-yildan boshlab O'zbekiston oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha o'z qonunchiligini sezilarli darajada mustahkamladi. Xususan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"¹ Qonun qabul qilindi. Ushbu normativ-huquqiy asosni yaratishda siyosiy elita tarkibidagi ta'sirchan ayollar qatlamining roli, shuningdek xalqaro inson huquqlariga oid tashvishlar muhim ahamiyat kasb etdi.² Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan huquqiy islohotlar mantiqiy davomi sifatida **2023-yilda** amaldagi jinoyat qonunchiligiga bir qator muhim o'zgartirish va

¹ ¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/562/3681-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 16.12.2022-y., 03/22/809/1091-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 09.04.2025-y., 03/25/1053/0317-son

² A.Kamolova, Rashidova, Dilbar, Choheli, Marina, Rakhimova, Minavar. 2022. Gender zo'ravonlik bo'yicha taqiqot natijalari: milliy tajriba va xorijiy amaliyot. Scientific library. ([https://moiti.uz/oz/servi ces/library/150 \(murojaat qilingan sana:28.11.2025\)](https://moiti.uz/oz/servi ces/library/150 (murojaat qilingan sana:28.11.2025)))

qo'shimchalar kiritildi. Natijada, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik ilk bor mustaqil jinoyat tarkibi sifatida Jinoyat kodeksida mustahkamlandi. Bu yangilik, o'z navbatida, oilaviy zo'ravonlikning avval boshqa jinoyat kategoriyalari tarkibida baholanib kelinayotgan murakkab jihatlarini aniq ajratish, ijtimoiy xavf darajasini real ifodalash hamda ushbu turdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni tizimli va izchil tartibga solish imkonini berdi. Mamlakatimiz qonunchiligida 126¹-moddaning joriy etilishi oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda muhim qadam bo'lgan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim holatlarda mazkur normani qo'llash bilan bo'liq muammolarga duch kelinmoqda.

Xususan, Qonunchiligimizda **“oilaviy zo'ravonlik”** va **“maishiy zo'ravonlik”** atamalarining bir xil ma'no kasb etishi, ya'ni ular o'zaro sinonim sifatida qo'llanilishi amaliyotda qulaydek ko'rinsa-da, aslida bu holat ushbu tushunchalarning huquqiy tabiatiga zid keladi. Garchi bunday yondashuv amaliy qulaylik nuqtai nazaridan o'zini oqlayotgandek ko'rinsa-da, mazkur holat ushbu tushunchalarning huquqiy tabiati va mazmuniy chegaralariga zid keladi. Chunki har ikkala kategoriya subyektiv tarkibi, vujudga kelish sohasi hamda huquqiy oqibatlarini jihatidan sezilarli farqlarga ega.

Ikki atama o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqishdan dastavval, “oila” tushunchasiga ta'rif bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, A.G.Xarchev oilani tarixan shakllangan, turmush o'rtoqlar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida talqin qiladi. U oilani kichik ijtimoiy guruh deb hisoblaydi, uning a'zolari nikoh yoki qarindoshlik aloqalari, umumiy turmush tarziga egaligi, o'zaro ma'naviy mas'uliyati bilan bog'langan bo'ladi. A.I. Antonov va V.M. Medikovlar esa oilani yagona oilaviy faoliyatga asoslangan, turmush -ota-onalik - qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan odamlar jamoasi sifatida ta'riflaydi. Ular oilani aholining qayta ishlab chiqarilishi, avlodlar o'rtasidagi vorislik, shuningdek bolalarni ijtimoiylashtirish va oila a'zolarining hayotini qo'llab-quvvatlash funksiyalarini bajaruvchi institut sifatida ko'rsatadi.³ Huquqiy ma'noda, “oila” tushunchasi, odatda, birgalikda yashaydigan, o'zaro huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslardan iborat uyushmani anglatadi. Bu huquq va majburiyatlar nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki bolalarni oilaga tarbiyaga berishning boshqa shakllaridan kelib chiqadi.⁴ O'zbek tilining izohli lug'atida esa, “oila” atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi, ya'ni oila Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmu;xonadon⁵dir. Demak, ko'rish mumkinki, “oilaviy zo'ravonlik” kategoriyasi, avvalo, huquqiy jihatdan tan olingan oila instituti doirasida sodir bo'ladigan majburiy ta'sir shakllarini ifodalaydi. Mazkur toifadagi shaxslarni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy mezon - ularning qonunchilikda e'tirof etilgan oila subyekti sifatidagi huquqiy maqomidir.

Shu bilan birga, maishiy zo'ravonlik tushunchasiga izoh berishdan oldin, **“maishat”** tushunchasini aniqlashdan boshlanish lozim. Lug'atlarga ko'ra, ushbu so'z quyidagicha talqin qilinadi: “hayot tarzi, kundalik turmush⁶”; “muayyan ijtimoiy guruhga xos umumiy turmush

³ Семенова Л.В. Семья. Понятие, виды, структура, проблемы // Фундаментальные и прикладные исследования: проблемы и результаты. 2015. №18. С. 58–62.

⁴ Семейное право (в вопросах и ответах): учебное пособие для студентов / Ю.Е. Попов и др. 2-е изд., перераб. и доп. Рязань, 2019. 128 с.

⁵ <https://izoh.uz/word/oila> (murojaat qilingan sana:01.12.2025)

⁶ Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. 4-е изд., доп. Москва: Азбуковник, 2000. 940 с.

tarzi” ; “alohida shaxs yoki odamlar guruhining turmush tarzi”, bunda mazkur tushunchaga “faqatgina e’tiqodlar emas, balki odamlar yashab kelgan odatlari, ko‘nikmalari, an’analari” kiradi⁸. “Ko‘rinib turibdiki, maishiy sharoit faqat oilada emas, balki shaxslarga xizmat ko‘rsatiladigan turli tashkilotlarda ham shakllanadi - dam olish uylari, sanatoriyalar, majburiy saqlash joylari, jazoni ijro etish muassasalari va boshqalarda. Bunday muassasalarda bo‘lgan har qanday shaxs maishiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lishi mumkin.⁹” U faqat rasmiy oila a‘zolari bilan cheklanib qolmay, balki birgalikda yashash, umumiy xo‘jalik yuritish yoki kundalik turmush sharoitlarining umumiyliigi bilan bog‘langan, lekin huquqiy jihatdan oila a‘zosi hisoblanmaydigan shaxslarni ham o‘z ichiga oladi. Bunga ro‘yxatdan o‘tmagan nikohdagi juftliklar, sobiq turmush o‘rtog‘ilar, umumiy farzandi bor, biroq oilaviy-huquqiy rishtalar bilan bog‘lanmagan shaxslar, qo‘shma yashash hududida turgan boshqa shaxslar ham kiradi.

Aynan shu jihat Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi qo‘llanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur moddaning subyektiv tarkibi faqat qonunchilikda belgilangan oilaviy munosabatlarga ega shaxslarni qamrab oladi. Natijada, yuqorida sanab o‘tilgan maishiy munosabatlar doirasidagi shaxslar ushbu moddaning subyektiv sifatida e’tirof etilmaydi va ularga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik harakatlari Jinoyat kodeksining boshqa tegishli moddalari bilan malakalanishi talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, “oilaviy zo‘ravonlik” va “maishiy zo‘ravonlik” atamalarini bir-biriga tenglashtirib qo‘llash ularning mohiyatan farqli bo‘lgan predmet doirasi va subyektiv tarkibini aralashtirib yuboradi, natijada esa huquqiy munosabatlarda aniqlikning susayishiga, normativ talqinlarda chalkashliklarga hamda zo‘ravonlik turini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish jarayoniga xalaqit berishi mumkin. Birinchi va eng muhim qadam – atamalarni nazariya darajasida emas, qonun matnida ham aniq ajratish. Hozir ko‘plab huquqiy hujjatlarda “oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik” degan qo‘shma shakl uchraydi, bu esa ularni amalda bir tushuncha sifatida qabul qilishga undaydi.

Nazariya va huquqni qo‘llash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, maishiy sharoitda sodir etilgan jinoyatlar huquqiy bahosiz qolmaydi. Aksincha, ular Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga muvofiq ravishda malakalanadi. Shu ma‘noda, maishiy jinoyatlar mustaqil huquqiy “bo‘shliq”ni hosil qilmaydi va ularni alohida, oilaviy jinoyatlar bilan tenglashtirilgan kategoriya sifatida ajratishga ehtiyoj mavjud emas.

Demak, mavjud ziddiyat maishiy munosabatlarda sodir etilgan jinoyatlarning malakalanishida emas, balki normativ-huquqiy hujjatlarda “maishiy” atamasining “oilaviy” tushunchasi bilan sinonim sifatida qo‘llanilishidir. Aynan shu holat huquqiy aniqlikning buzilishiga, oilaviy zo‘ravonlik instituti chegaralarining noaniqlashishiga hamda huquqni qo‘llash amaliyotida turli talqinlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan ta’kidlash lozimki, normativ-huquqiy hujjatlarda “oilaviy va maishiy zo‘ravonlik” iborasining birgalikda qo‘llanilishi huquqiy kolliziyani keltirib chiqaradi. Bunday yondashuv maishiy

⁷ Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. 4-е изд., доп. Москва: Азбуковник, 2000. 940 с.

⁸ Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. 4-е изд., доп. Москва: Азбуковник, 2000. 940 с.

⁹ Пискайкина Виктория Михайловна Соотношение понятий семейного, домашнего и бытового насилия // Вестник экономики и права. 2025. №104. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/sootnoshenie-ponyatiy-semeynogo-domashnego-i-bytovogo-nasiliya> (murojaat qilingan sana: 01.12.2025)

zo'rvonlikni alohida jinoyat-huquqiy institut sifatida e'tirof etayotgandek taassurot uyg'otadi, holbuki amalda bunday jinoyatlar allaqachon Jinoyat kodeksining umumiy qoidalari bilan qamrab olingan

Demak, qisqa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi qator omillar sabab "oilaviy" va "maishiy" jumllarini bir sinonim sifatida qabul qilib bo'lmaydi va atamalar turf xil ma'no kasb etadi, ya'ni

"Oilaviy zo'rvonlik" - bu huquqiy jihatdan oila subyekti sifatida e'tirof etilgan shaxsning (er, xotin, ota, ona, farzand, farzandlikka olingan, vasiy, qarindoshning qonunda tan olingan boshqa toifalari) o'z oila a'zosiga nisbatan birgalikdagi yashash, umumiy turmush va ma'naviy-moliyaviy mas'uliyat sharoitidan kelib chiqib sodir etadigan, jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy tazyiq ko'rinishidagi, jabrlanuvchining sha'ni, erki, xavfsizligi va konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi, jamiyat uchun ijtimoiy xavfli bo'lgan qonunga xilof faol xatti-harakatlar majmuyidir.

"Maishiy zo'rvonlik" - bu huquqiy jihatdan oila tarkibiga kirmaydigan, biroq kundalik hayot va umumiy maishiy sharoitni bo'lishuvchi shaxslar o'rtasida, birga yashash, umumiy xo'jalik yuritish, turmush tarzi, doimiy yaqin muloqot yoki bir hududdan foydalanish munosabatlari zaminida sodir etiladigan, jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy tazyiq shaklida namoyon bo'ladigan, jabrlanuvchining sha'ni, huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi, ijtimoiy xavfli bo'lgan qonunga xilof faol xatti-harakatlar majmuyidir.

Mavjud muammoni bartaraf etishning eng maqbul yo'li - qonunchilikda terminologik aniqlikni ta'minlashdir. Xususan, "oilaviy zo'rvonlik" hamda "maishiy zo'rvonlik" tushunchalarining mazmun-mohiyatini normativ darajada to'liq va izchil yorituvchi ta'riflarni belgilash zarur. Shu bilan birga, "maishiy" atamasining amaliyotda "oilaviy" tushunchasi bilan sinonim tarzda qo'llanilishi huquqiy noaniqlik va talqinlar xilma-xilligini keltirib chiqarayotganini inobatga olib, ushbu atamani normativ-huquqiy muomaladan chiqarib tashlash masalasi ham ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, "maishiy" tushunchasining normativ-huquqiy hujjatlardan chiqarib tashlanishi: oilaviy zo'rvonlik institutining huquqiy mohiyatini aniq belgilashga, Jinoyat kodeksi normalarini izchil va to'g'ri qo'llashga, huquqni qo'llash amaliyotida turli talqinlar va kolliziyalarni bartaraf etishga xizmat qiladi.